

TOYLOQ SHEVALARINING RANG -BARANGLIGI

Gulchehra Qurbonboyevna Ahatova

Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 28-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7069854>

Annotatsiya. Ushbu maqola Samarqand viloyati Toyloq tumanida joylashgan Navzandak, Yastepa va Jumabozor nomlari bilan ataluvchi hamda yonma-yon joylashgan qishloq shevalarining rang-barang jihatlarini ochib beradi va bunday rango-ranglikni ilm ahliga havola etadi. Jumladan, mazkur qishloqlardagi shevalarning o'ziga xosliklari-yu o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatish uchun turli namunalar keltirib o'tiladi. Ya'ni shevalar o'rganilishi natijasida adabiy tilda mavjud bo'lmagan va omma uchun yangi bo'lgan so'zlar maqolaning mazmunini ochishda qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Toyloq, Yastepa, Jumabozor, Navzandak, sheva, qarluq, qipchoq, yangi so'z, adabiy til, lahja, ibora, tojik tili, til boyligi.

РАЗНООБРАЗИЕ ДИАЛЕКТОВ ТОЙЛОК

Аннотация. В данной статье раскрываются различные аспекты говоров села, расположенного в Тойлокском районе Самаркандской области, названного в честь Навзандака, Ястепы и Джумабозора и расположенного рядом друг с другом, и доносится такое разнообразие до ученых. В частности, приводятся различные примеры, показывающие особенности, сходства и различия диалектов этих деревень. То есть в результате изучения диалектов для раскрытия содержания статьи были использованы слова, не существующие в литературном языке и являющиеся новыми для публики.

Ключевые слова: Тойлок, Ястепы, Джумабозор, Навзандак, диалект, карлук, кыпчак, новое слово, литературный язык, диалект, словосочетание, таджикский язык, языковое богатство.

THE VARIETY OF TOYLOQ DIALECTS

Abstract. This article reveals the various aspects of the village dialects located in Toyloq district of Samarkand region, named after Navzandak, Yastepa and Jumabozor and located next to each other, and conveys such diversity to scholars. In particular, various examples are cited to show the peculiarities and similarities and differences of the dialects of these villages. That is, as a result of the study of dialects, words that do not exist in the literary language and are new to the public were used to reveal the content of the article.

Keywords: Toylok, Yastepa, Jumabozor, Navzandak, dialect, Qarluq, Kipchak, new word, literary language, dialect, phrase, Tajik language, language wealth.

KIRISH

Shevalardagi so'zlar til boyligining asosiy birligidir. Shuning uchun ham sheva va lahjalar xalq hayotining ko'zgusi, tarixini o'zida aks ettiradi. Shevalar – xalq tafakkurining, moddiy-ma'naviy hayotining ifodasi. Shevadagi so'zlar amaliy talab, ehtiyoj natijasida tilda paydo bo'ladi. Til muhit boyligi, uning taraqqiyoti, rivoji esa xalq ist'emolidagi so'zlar bilan, leksimlar bilan ularning miqdori bilan o'lchanadi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Har qanday millat tilining boyishi undagi sheva va lahjalarga borib taqaladi. Shevalardagi yangi-yangi so'zlarning kelib chiqishi esa obyektiv borliqning kishi ongida aks etishi bilan bog'liq. Borliqdagi narsa, voqeylik, belgi, harakat-holat kabilarning ongimizda aks etishining

ifodasi sifatida soʻz yuzaga keladi. soʻz xalq ijodining mahsuli boʻlgani uchun shu til egalarining diqqat- eʼtiborida boʻladi. Vaqt oʻtishi, zamon oʻtishi bilan soʻzlar koʻpayib, boyib boraveradi. Biz quyida ana shunday zamonlar osha soʻz boyligiga ega boʻlgan “Toyloq” shevalarining rang-barangligi bilan tanishamiz.

Toyloq — bu Samarqand viloyatidagi tuman nomi . “Toyloq” tumanida 20 dan ortiq qishloq boʻlib, bu qishloqlarning har biri alohida-alohida shevaga, urf –odatga, oʻziga xos madaniyatga va tarixga ega. “Toyloq” tumanida qishloqlar koʻp boʻlganligi uchun biz bu maqolada “Toyloq”dagi uchta qishloq: “Yastepa”, “Navzandak” va “Jumabozor” qishloqlari shevalariga qaratmoqchimiz.

TADQIQOT NATIJALARI

Shu oʻrinda quyidagi maʼlumotni aytib oʻtish maqsadga muvofiq boʻladi deb oʻyladik. Qadim zamonlardan xalqimiz tojik xalqi bilan yonma-yon yashab kelgan. “Toyloq” tumanida ham tojik xalqi koʻpchilikni tashkil etadi. Xususan, “Toyloq” shaharchasida, asosan, tojiklar istiqomat qiladi va bu tilda ham aks etganligini koʻramiz. Biz eʼtiborimizni qaratgan “Navzandak” qishlogʻining nomi ham tojikcha “nav”-yangi va “zandak”-kelinchak soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, bu nom bilan bogʻliq quyidagi rivoyat ham xalq orasida yuradi. Aytishlaricha, milloddan avvalgi davrlarda Makedoniyalik Zulqarnayn degan shoh Samarqand yerlarini kezib yurganda, bir goʻzal qizni sevib qolar va unga uylanar ekan. Ammo shoh harbiy yurishlarini davom ettirish uchun joʻnab ketar chogʻi qizni oʻz qishlogʻida qoldirar ekan. Shu-shu bu qishloq “Navzandak” yaʼni yangi kelinchak deb ataladigan boʻlibdi.

“Yastepa” va “Jumabozor” qishloqlarining nomlari esa oʻzbekcha nomlangan boʻlib, “Yastepa”- yassi tepaliklardan iborat qishloq, “Jumabozor”- juma kunlari bozor boʻladigan qishloq boʻlganligi uchun shunday nomlangan. Bu uch qishloqning shevalarining bir-biriga oʻxshash tomonlari bilan birga tubdan farq qiladigan tomonlari ham koʻp. “Jumabozor”, “Yastepa”, “Navzandak” qishloqlari bir-biriga yaqin, yonma-yon qishloqlar boʻlishiga qaramay, “Jumabozor” qarluq shevasiga yaqin boʻlsa, “Yastepa” bilan “Navzandak” shevalari qipchoq shevasiga kiradi. Biz buni quyidagi misollardan ham bilishimiz mumkin.

Jumabozor	Yastepa	Navzandak	adabiy til
Man-san	men-sen	men-sen	men-sen
Aya	biyi	ena	ona
Moʻchcha	qimisqa	qimisqa	chumoli
Sarafta	sarafta	sarafta	haftalik oziq-ovqat
Burchak	kunjak	irga	burchak, chet joy
Toʻppi	happak	doʻppi	toʻp, koptok
Azgina	jichcha	gittak	ozroq, kamroq
Kurushka	choʻlpak	kurushka	choykash
Igna	iyna	iyna	igna
Ip	jip	jip	ip
Koʻynak	kuylak	kuylak	koʻylak
Tugun	boʻxcha	boʻxcha	tuguncha
Galpisi	galpisi	galpisi	doʻlma
Oʻtirish	oʻtirish	gashtak	gap
Goʻshanga	chimilligʻ	chimilligʻ	goʻshanga
Garang	taytuv	naynuv	bemaʼni

Tayloq tumanidagi bu 3 qishloq aholisi nutqida fe'l so'z turkumiga oid so'zlarda, ayniqsa, shevalardagi farqlar yaqqol seziladi. Masalan, "Jumabozor" shevasida "bor"- buyruq fe'lidagi "r" tovushi umuman ishlatilmaydi (Bugun bizanikka bo—Bugun bzlarinikiga bor). Bor so'zi modal so'z bo'lganda ham xuddi shunday "r" tovushi tushib qoladi (Manda kitob bo – menda kitob bor). "Yastepa" va "Navzandak" shevalarida esa "bor" fe'li to'liq talaffuz qilinadi. "yo'q" modal so'zini ham jumabozorliklar "q" tovushisiz talaffuz qilsa, yastepalik va navzandakliklar to'liq talaffuz qiladi. Ammo "kel"-- buyruq fe'lini uchala qishloq aholisi ham birdek "ke" (Yastepa va Navzandak "ki") deb, "bo'l"—fe'lini "bo'"(Yastepa va Navzandak "bu") deb, "qil"—buyruq fe'lini "qi" deb, "l" tovushini tushirgan holda talaffuz etadi.

Jumabozor, Yastepa, Navzandak aholisi shevalarining kuzatilishi natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, bu qishloq shevalaridagi farqlarning katta qismini ulardagi qo'shimchalar tashkil etar ekan. Masalan, o'xshatish-qiyoslash qo'shimchasi –dek, --day Jumabozorda –dey (guldey qiz—guldek qiz), Yastepada –lay(gullay qiz), Navzandakda –ley (gulley qiz) tarzida aytiladi. Ko'plik qo'shimchasi –lar Jumabozor shevasida –la(kitobla—kitoblar) deb, Yastepa va Navzandak shevasida esa –lar (kitoblar) deb aytiladi. Quyida shunday qo'shimchalarning so'zlarga qanday qo'shib kelishini kuzatamiz:

Jumabozor	Yastepa	Navzandak	adabiy til
Bolla	bachalar	bachchalar	bola-lar
Kellimi	kellima	kelima	kel-di-mi?
Qannoqsan	qannaysan	qanniysan	qanday-san?
Shundoq	shunnay	shitib	shu-n- day
Kelopti	kelyapti	kelayapti	kel-yapti

MUHOKAMA

Yuqoridagi misollardan farqli ravishda, --ning qo'shimchasi uchala qishloqda ham bir xil –ni (ukamni – ukamning), --da qo'shimchasi esa uchallasida ham –ga (uyda emas uyga) deb talaffuz qilinadi.

Biz yuqorida ko'proq "Yastepa", "Navzandak", "Jumabozor" qishloqlaridagi shevalarning o'zaro farqlarini ko'rib chiqdik. Endi bu uchala qishloq shevalaridagi umumiy bo'lgan tomonlarga, ya'ni so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlariga e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Birinchi bo'lib bu uchala qishloq shevasidagi sinonimlarni birlashtirdik:

Ona so'zining sinonimlari—aya, biyi, oyi, opa, ena, ona.

Chelak so'zining ma'nodoshlari—paqir, satil, chelak.

Yanga—Checha, yanga, kelinoyi, yangamullo.

Oyoq to'pi—koptok, do'ppi, miyach, happak, to'p.

Chorsi—qars, qarsi, oq ro'mol.

Ertak—matal, cho'pchak, to'qima.

Bichak—burrak, pichak.

Kalta nimcha—kamzulcha, kaltacha, qismacha.

Choykash--cho'lpak, kurushka, choykash.

Likopcha—tarelka, tovoqcha, tarilka.

sho'rva-- sho'rbo, piyavo.

Ozgina—qittay, gittakkina, azgina.

Bir bo'lak—bir burda, bir tuyur.

Ayron—chakki, qatiq, ayron.

Yostiq—lula, yassiq, bolish.

Bola—bachcha, bala.

Katta ona (otaning yoki onaning onasi)—katina, ena, oppog‘ ona, ona, qarina.

Katta ota (otaning yoki onaning otasi)—katota, ota, bobo, oppog‘ ota, qariota.

Ayollarning yozlik poyabzali—shippak, tapich, tapishka.

Erkaklarning poyabzali—batinka, patinka.

Qishlik poyabzal—bo‘tik, etik, sapok.

Soch to‘g‘nog‘ich—jajin, zakolka, qistirg‘ich.

Paypoq—jo‘lob, jo‘lobi, naski.

Bu qishloq shevalarida zamon qo‘shimchalarining ham har xilligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, o‘tgan zamon qo‘shimchasi –“di” Yastepa va Navzandak shevasida –“li” tarzida aytiladi (keldi—kelli, bildi—billi, qildi—qilli kabi). Jumabozor shevasida esa adabiy til me‘yoriga mos aytiladi.

Hozirgi zamon qo‘shimchasi –“yapti” Yastepa shevasida –“ayapti”, Navzandak shevasida –“jopti”, Jumabozor shevasida esa –“opti” tarzida aytiladi (Kelyapti—kelayapti—kebjopti—kelopti kabi).

Bu qishloq shevalarida quydagicha so‘zlarda ham o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin:

Jumabozor	Yastepa	Navzandak	Adabiy til
Sasan	sarson	sarson	sarsuzan
Qohma	qohma	qohma	jiyak
Yana	tag‘in	tag‘in	yana
Bobo	bovo	buvo	bobo
Burun	birin	birn	burun (inson a‘zosi)
Bunni	binni	binni	burni (egalik qo‘shimchasi qo‘shilgandagi holati)
Javlik	javlik	javluk	butunlay
Ug‘il	ul	ul	o‘g‘il
Qaro	qara	qara	qora (rang)
Yalpog‘	jalpoq	jalpoq	yalpoq

Biz endi bu 3 qishloq shevalaridagi olmoshlarning ishlatilishini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz.

Jumabozor, Yastepa va Navzandak shevalarida olmoshlar nihoyatda ko‘p qo‘llaniladi ammo adabiy tildan ancha farq qilgan holda talaffuz qilinadi.

Jumabozor	Yastepa	Navzandak	Adabiy til
Eqqa- beqqa	aqqa-baqa	aqqa-baqa	u yoqqa-bu yoqqa
Shunnoq qilib	shitib	sho‘tib	shunday qilib
Sheqqa	shiga	sherga	shu yerga
Hamma yoq	hama joq	hama jer	hamma joy
Bunnoq	bitib	bunay	bunday
Man-san	min-sin	min-sin	men-sen
Sanla	sila	sila	senlar (kishilik olmoshlarining birlikdagi ikkinchi shaxsga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilgandagi shakli)
So‘ng	so‘g‘in	so‘g‘in	shundan so‘ng

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Toyloq shevalari nihoyatda rang –barang. Biz yuqorida hali Tayloq qishloqlaridan faqat 3 tasininggina shevasiga e‘tiborimizni qaratdik. Bu 3 qishloq:

“Yastepa”, “Navzandak”, “Jumabozor” bir-biriga yonma- yon joylashgan qishloqlar bo‘lib, aholisi qadimdan yonma –yon qo‘ni- qo‘shni bo‘lib yashashgan. Bu yaqinlik tilga ham ko‘chgan. Shuning uchun shevadagi ko‘plab so‘zlar aynan bir xil. Va ayni paytda esa bu qishloq shevalari orasidagi juda katta tafovutni ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan oladigan bo‘lsak, “Navzandak” va “Yastepa” shevalari qipchoq shevasida bo‘lsa, “Jumabozor” shevasi qarluq lahjasiga yaqin turishini yuqoridagi misollar bilan ko‘rib chiqdik.

Tilimizdagi har bir shevaga xos so‘z, har bir ibora tilimizning beqiyos boyligidir. Shuning uchun ham biz yurtimizning har qanday chekka qishloqlaridagi so‘z va iboralarni bir inju kabi asrab, avaylab ona tilimizning cheksiz ummoniga olib kelib qo‘shishimiz, tilimizning boyligiga shu yo‘l bilan yana boylik qo‘shishimiz lozim.

REFERENCES

1. Aytmuradov A., Tyurkskiye etnonimm, Nukus, 1986; Hasan Ato Abushiy, Turkiy qavmlar tarixi, T, 1995.
2. Doniyorov X.. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. T.; 1968; Etnonim, M.; 1970;
3. Yeremeyev D.Ye.. Etnonim tyurok, M.; 1971;
4. Shaniyazov K., Etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda, T.; 1974;
5. <https://www.wikiwand.com>
6. <https://uz.wikipedia.org>